
“Abdulla Qodiriy” mahallasida ichki yo‘llar asfalt qilinmoqda

Ayni kunlarda Farg‘ona shahridagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, “Abdulla Qodiriy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi ko‘p qavatli uylar oralig‘idagi yo‘laklarning 4500 metr kvadrat qismi asfalt qilinishi belgilangan. Hozirda yo‘llarni asfaltlashtirish ishlari davom etmoqda. Mazkur ishlar uchun qaror asosida 650 mln. so‘m mablag‘ ajratilgan.

2023-03-06 16:43:29